

Ziyoyev Jamshid
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbekiston

MOLIYA SIYOSATINING DAVLAT RIVOJLANISHDAGI ROLI VA VAZIFALARI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy siyosatning davlat rivojlanishidagi o‘rni va vazifalari tahlil qilinadi. Moliyaviy siyosat orqali davlat iqtisodiy barqarorlikka erishish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va tarmoqlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada moliyaviy siyosatning boshqaruv mexanizmlari, uning qonunchilik va iqtisodiy dasturlar bilan bog‘liq vazifalari hamda bu sohadagi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari), moliyaviy siyosat, moliyaviy munosabatlar, iqtisodiy siyosat, moliya mexanizmi, moliyadan foydalanishning metodlari.

Жамшид Зиёев
Преподаватель кафедры «Экономика»
Университет экономики и педагогики, Узбекистан

АНАЛИЗ РОЛИ И ОБЯЗАННОСТЕЙ ФИНАНСОВОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ ГОСУДАРСТВА

Аннотация: В статье проводится анализ роли и обязанностей финансовой политики в развитии государства. Финансовая политика играет ключевую роль в достижении экономической стабильности, обеспечении социального благополучия и развитии экономических связей между секторами. Рассматриваются механизмы управления финансовой политикой, её задачи в контексте законодательства и

экономических программ, а также проблемы, связанные с её реализацией..

Ключевые слова: компоненты (направления) финансовой политики, финансовая политика, экономическая политика, финансовый механизм, методы использования финансов, финансовые отношения.

Jamshid Ziyoev

Lecturer, Department of Economics

University of Economics and Pedagogy, Uzbekistan

ANALYSIS OF THE ROLE AND RESPONSIBILITIES OF FINANCIAL POLICY IN THE DEVELOPMENT OF THE STATE

Abstract: *This article analyzes the role and responsibilities of financial policy in state development. Financial policy plays a crucial role in achieving economic stability, ensuring social welfare, and fostering economic relations between sectors. The article examines financial policy management mechanisms, its tasks in the context of legislation and economic programs, and the challenges associated with its implementation.*

Keywords: *financial policy, economic policy, financial mechanism, methods of using finance, components (directions) of financial policy, financial relations.*

Kirish. Moliyaviy siyosatni faqat iqtisodiy siyosatga bog‘lab qo‘yish maqsadga muvofiq emas; chunki ijtimoiy rivojlanish deyilganda faqatgina maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishi tushunilibgina qolmasdan jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi ham tushuniladi.

Siyosat davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi. Siyosiy ta’sir ob’ekti hisoblangan ijtimoiy munosabatlar sohalariga bog‘liq ravishda iqtisodiy yoki ijtimoiy, madaniy yoki texnikaviy, byudjet yoki kredit, ichki yoki tashqi siyosat to‘g‘risida gapiriladi.

Moliyaviy siyosat o‘z-o‘zini bosib turuvchi mustaqii ahamiyatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, ijtimoiy soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo‘lishi jiddiy ahamiyatga ega emas.

Siyosat, siyosiy ta’sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch elementlardan tarkib topadi:

- bosh maqsadni aniqlash va qo‘yish hamda jamiyat hayotining ma’lum bir davriga xos qo‘yiigan maqsadlarga erishish uchun yechi- lishi zarur bo‘lgan istiqboldagi va yaqin kunlardagi vazifalarni aniq- lashtirish;
- qo‘yilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishiladigan, yaqin kunlardagi va istiqboldagi vazifalar esa oqilona tartibda hal qilinadigan munosabatlarning metodlari, vositalari va aniq shakllarini ishlab chiqish;
- qo‘yilgan vazifalarni yechishga qodirbo‘lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning bajarilishini tashkil etish.

Demak, takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo‘naltiriladigan maqsad va vazifalarning yechilishini aniqlashga moliyaviy siyosat deyiladi.

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlat moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shuning uchun ham moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Bu faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishii moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan.

Har qanday jamiyatda ham davlat moliyadan o‘zining funktsiya va vazifalarini bajarishda hamda ma’lum maqsadlarga erishishda foydalanadi. Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati “Davlat kimning

hisobidan moliyaviy resurslarni oladi va kimlarning manfaatlari uchun bu mablag'lardan foydalanadi?" degan savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi [2]. Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirilishida moliya siyosati muhim o'rinni egallaydi. Uni ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish jarayonida jamiyat oldida turgan masalalarni xal etilish sharoitlari ta'minlanadi. U iqtisodiy manfaatlarga ta'sir etuvchi faol dastak sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy siyosat - xo'jalik yuritishning tamoyillari va shakllari, iqtisodiyotni rivojlantirish vazifalarini yechishdagi usullar, chora-tadbirlar va faoliyatlar yig'indisidir. Iqtisodiy siyosat jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Iqtisodiy siyosat o'z ichiga baho siyosati, pul-kredit siyosati, amortizasiya siyosati va moliya siyosati kabilarni mujassamlashtiradi. Moliya siyosati - bu davlatning iqtisodiy siyosatini tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisidir. Moliya siyosatining muhim vazifasi - u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Lekin moliya siyosatini faqat iqtisodiy siyosatga bog'lash mumkin emas. Moliya siyosati - bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko'rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo'lish bilan bir vaqtda davlatning har qanday istalgan ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishi uchun xoh ijtimoiy, xoh iqtisodiy xoh halqaro munosabatlar olib borishida muhim vosita. Ayrim hollarda moliyaviy siyosat davlatning o'z funksiyalarini bajarishi uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining ma'lum bir faoliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday talqin o'zida bir necha xavfni mujassam etadi. Buning boisi shundaki, milliy xo'jalik taraqqiyotida davlatning roli to'g'risidagi jamiyatda hukmron tasawurlarga muvofiq ravishda davlatning vazifalari va funksiyalari ham o'zgaradi, transformatsiyalanadi. Masalan,

mamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi, aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish va shunga o'xshash davlatning funksiyalari va vazifalarini aniqlaydigan boshqa bir qancha masalalar hamon munozaraligicha qolmoqda. Buning ustiga, moliyaviy siyosatdan faqat davlatning funksiyalarini bajarish vositasi sifatida foydalanish davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan moliya tizimining boshqa subyektlari, ya'ni aynan mamlakatning aholisi va xo'jalik yurituvchi subyektlari manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqadi.

Misol uchun, ko'plab mutaxassislar, shu jumladan, davlat hokimiyat organlarining vakillari tomonidan amaldagi soliq mexanizmining samarasiz ekanligi, biznesning ayrim sohalari uchun esa uning oqibati juda yomon natijalarga olib kelishi mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslansa-yu, moliyaviy siyosat uzoq vaqt davomida o'zgarmasdan qolaversa, amalga oshiriladigan soliq islohotlari uning mohiyatini o'zgartirmasa, bunday holda davlatning moliyaviy siyosati davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan faol ravishda hayotga tadbiiq etilayotgan alohida shaxslar guruhining moliyaviy siyosatiga aylanib qoladi.

Yuqoridagilardan quyidagi uchta mantiqiy xulosa kelib chiqadi:

- birinchidan, moliyaviy siyosat faqat o'z manfaatlarini ko'zda tutadigan hokimiyat organlarining u yoki bu maqsadlarga erishishi vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini yechish vositasi bo'lishi kerak;
- ikkinchidan, davlatning moliyaviy siyosati faqat davlat hokimiyat organlarining emas, balki moliya tizimi barcha subyektlarining manfaatlarini hisobga olishi lozim;
- uchinchidan, davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatini farqlash zarur.

Shunday qilib, davlat moliyaviy siyosatini mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlarida moliyaviy resurslar o'sishini mutanosiblashtirilgan holda ta'minlash bo'yicha davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida

qarash kerak. Xorijiy tajribalarning ko'rsatishicha, moliyaviy resurslarning mutanosiblashtirilgan holda o'sishi zarurligini inkor etish mamlakat moliya tizimining degradatsiyalashuviga, iqtisodiyotning yemirilishi va vayron bo'lishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatib turishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush farovonligini ta'minlab va davlat daromadlari manbaini ko'paytirib, moliyaviy xo'jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi mumkin. Moliyaviy siyosat ana shunga yo'naltirilganligi orqali uning quyidagi eng asosiy maqsadini aniqlash mumkin: jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmushi darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning asosiy maqsadidir.

Moliyaviy siyosat dasturlarini (uzoq, o'rta va qisqa muddatli) bajarish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni taqsimlash va qayta taqsimlashga yo'naltirilgan davlat tadbirlari majmui ta'minlaydi. Bu tadbirlar orasida moliyaviy munosabatlarning shakllari va normalarini huquqiy tartibga solish muhim o'rin egallaydi.

O'z-o'zidan moliyaviy siyosat yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin emas. Uning yaxshi yoki yomon ekanligi jamiyat (yoki uning ma'lum bir qismi) manfaatlariga qanchalik muvofiqligi va quyilgan maqsadlarga erishish hamda aniq vazifalarning yechilishiga qay darajada ta'sir ko'rsatganligi bilan belgilanadi.

Hukumatning moliyaviy siyosatiga baho berish uchun va uni o'zgartirish bo'yicha tavsiya berish uchun, birinchi navbatda, butun jamiyat manfaatlari va aholining alohida guruhlarini manfaatlarini ajratgan holda jamiyat taraqqiyotining aniq dasturiga, yechilishi lozim bo'lgan masalalarning muddatlari va metodlarini aniqlagan holda istiqboldagi va yaqin yillardagi

vazifalarning tavsifiga ega bo'lish lozim. Faqat ana shunday sharoitdagina moliyaviy siyosatni amalga oshirishning konkret mexanizmini ishlab chiqish va unga xolisona baho berish mumkin.

Agar moliyaviy siyosat ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini, jamiyatdagi barcha qatlamlar va alohida guruhlarning manfaatlarini, ma'lum tarixiy sharoitni va hayotning o'ziga xos xususiyatlarini yuqori darajada hisobga oladigan bo'lsa, uning natijalari shuncha samarali bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida, moliyaviy siyosatning muvaffaqiyati muvofiqlashtirish mexanizmining sifatli ishlab chiqarilishiga va jamiyatdagi turli qatlamlar manfaatlarini amalga oshirilishiga hamda davlat ixtiyorida bo'lgan ob'ektiv imkoniyatlarning mavjudligiga, ya'ni jamiyat ijtimoiy tizimidagi hamda ijtimoiy ong va psixologiya holatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda moliyaviy siyosatni amalga oshirilishiga, ayrim hollarda, bir-biriga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'siridan har tomonlama foydalanish mexanizmini ishlab chiqishga bevosita bog'liq.

Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o'zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy siyosatni aniqlash va uni shakllantirish uchun davlatning moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonchli ma'lumotlar zarurdir. Huquqiy demokratik davlatda moliyaviy statistika ko'rsatkichlari keng jamoatchilikka ham tegishli bo'lishi kerak. Moliyaviy hisobotlar esa doimiy, o'z vaqtida beriladigan, hamma olishi mumkin bo'lgan va eng asosiysi ishonchli bo'lmog'i lozim.

Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab oladigan moliyaviy munosabatlar rivojlanishi yo'nalishlarining umumiy ko'lami bilan belgilanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- moliyaviy siyosatning umumiy konsepsiyasini (maqsadlari, prinsiplarini, vazifalarini, amalga oshirish bosqichlari va eng samarali metodlarini) ishlab chiqish;
- makrodaraja va bozor iqtisodiyoti subyektlari darajasida iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradigan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos boʻlgan dinamik holdagi moliya mexanizmini shakllantirish;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish boʻyicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qishlashdagi rolga muvofiq ravishda ijtimoiy iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari boʻyicha moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlashni tashkil qilish;
- iqtisodiy oʻsishning joriy va istiqboldagi moliyaviy salohiyatini shakllantirish.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi Davlat byudjeti xarajatlari oshishiga olib keladi va shunga muvofiq ravishda bir vaqtning oʻzida davlat daromadlari oshirilishini taʼminlashga qaratilgan moliyaviy choralar koʻriladi. Daromad soligʻi davlat daromadlarini oshirishdagi asosiy manbaga aylandi. Uni hisoblashda soliqqa tortishning progressiv stavkalari qoʻllanildi. Soliqlarning bunday tizimi MDni taqsimlashda davlatning rolini oshirishga olib keldi.

Moliyaviy yoʻnalishda har ikkala nazariy konsepsiyalar oʻrtasidagi farq mohiyatan byudjet defitsitini turli xilda baholanishi bilan belgilanadi. Agar birinchi konsepsiya defitsitsiz byudjetni shakllantirish va undan foydalanish zarurligidan kelib chiqqan boʻlsa, ikkinchi konsepsiya esa byudjet defitsitining boʻlishi mumkinligiga yoʻl qoʻygan va ayni zamonda iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishda byudjet defitsitiga faol rol ajratgan.

Haqiqatdan ham XX asrning 30-60-yillarida keynscha moliyaviy siyosat deb nom olgan siyosat gʻarb mamlakatlarida oʻz samaradorligini isbotladi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kengayishi va tartibga soluvchi funksiyasining kuchayishi oqibatida moliyaviy munosabatlarni tashkil qilish murakkablashdi. Davlat xarajatlarini defitsitli moliyalashtirish siyosati davlat krediti rivojlanishini belgilab berdi. Uzoq va oʻrta muddatli qarzlarni jalb etish ssuda kapitallari bozorining rivojlanishiga olib keldi va oʻz ahamiyati boʻyicha davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi ikkinchi manbaga aylandi. Natijada MDni qayta taqsimlashda moliyaning roli yanada kuchaydi.

Davlatning ixtiyorida moliyaviy resurslarning katta qismi toʻplanishinigina emas, balki moliyaviy munosabatlarni tashkil etishda davlatning yakka hokimligini koʻzda tutuvchi moliyaviy markazlashtirish zaruriyatga aylandi. Chunki davlatning funksiyalari shu qadar kengaytirildiki, ularning eng asosiylari xoʻjalik-tashkilotchilik va madaniy-tarbiyaviy funksiyalar boʻlib qoldi.

Moliyaviy markazlashtirish yana shunda namoyon boʻldiki, davlat bevosita va monopol ravishda baholarni shakllantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soldi. Shunday qilib, boshqaruv tizimini barcha qiymat elementlari butun ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarib turuvchi yagona maʼmuriy-buyruqbozlik tizimiga amalda birlashtirildi.

Bunaqangi moliyaviy siyosat bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi boʻlgan ikkinchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga oʻtilishini, sovet davlati oldida turgan va faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechilishini kafolatlabdi. Bu moliyaviy siyosatni yetarli darajada samarali boʻlgan moliyaviy siyosat deyish mumkin.

Bir vaqtning oʻzida ijtimoiyistik lager mamlakatlariga juda katta miqdorda moliyaviy yordamlar koʻrsatildi:

- ularning taraqqiyotida ijtimoiyistik yoʻnalishni taʼminlash uchun;

- ijtimoiyistik mamlakatlarni sanoati rivojlangan mamlakatlarga aylantirish uchun;
- kuchli harbiy ittifoqchilarni shakllantirish va umuman mudofa qobiliyatini mustahkamlash uchun.

Bu maqsadlarga erishish uchun xom-ashyo bazasini va eng awalo, neft va gaz qazib chiqarishni yuqori tezlashtirilgan sur'atlarda rivojlantirish talab etildi. Yangi qazilma boyliklarini o'zlashtirish (ularning geografiyasi shimoli-sharq tomonga qarab kengaya boshladi) juda katta miqdordagi moliya resurslarning bo'lishini taqozo etdi. Bu vazifalarni bajarish uchun yangi hududlarni o'zlashtirish, o'sha tumanlarga ko'plab ishchi kuchlarini migratsiya qilish, mehnatga haq to'lashning oshirilgan normalarini joriy etish zarur bo'ldi. Neft va gaz quvurlarini qurish hajmi muttasil oshib bordi. Xalqaro bozorda neft va gazning bahosi yuqori bo'lib turgan paytlarda ularni eksport qilish xarajatlarni ma'lum darajada qoplagan edi. Shunga qaramasdan, bunday moliyaviy siyosat MDni tegishii tarzda qayta taqsimlashni talab qildi. Natijada mamlakatda harbiy- sanoat kompleksi taraqqiy etgan bir tomonlama iqtisodiyot yaratildi.

Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash negizida quyidagilarni yotishi muhim ahamiyatga egadir:

- taqsimlash munosabatlarining subyektlarini aniqlash, ya'ni moliyaviy resurslarning egalari va taqsimlovchilarini ajratish;
- yuridik shaxslar va aholining o'z ehtiyojlarini qondirishdagi mustaqillik darajasi va davlatning funksiyalariga bog'liq ravishda davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning markazlashtirilish darajasini aniqlash;
- birinchi darajali ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondirish choralarini tanlash va shularga mos ravishda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishning manbalari va metodlarini tanlash.

Moliyaviy siyosat ko'p o'lchamli tushuncha hisoblanadi. Agar umumiy holda uning sohasi jamiyat taraqqiyotining alohida bosqich- larida hukmronlik qilgan nazariy konsepsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlari elementlari bo'yicha tabaqalanishi moliya tizimining rivojlanganligiga va uning ayrim bo'g'inlari mustaqilligiga bog'liq bo'ladi.

Demokratik davlatda byudjet qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o'z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida to'plangan pul mablag'lari harakati o'z ifodasini topadi. Davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo'naltirish byudjet siyosati ustuvorligini tashkil etadi. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta'minlaydigan mablag'lardan ko'p mablag' talab etsa, davlat qo'shimcha daromadlarni shakllantirishning quyidagi favqulodda usullarini qo'llashga majbur bo'ladi: ichki va tashqi kreditlar, milliy boylikni sotish, boylik, mol-mulkni ijaraga berish va konsessiyalar. Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishga doir favqulodda choralar iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olgan holda hokimiyat qonunchilik organlari qarz olish chegarasini oldindan belgilaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy tashabbussiz va jamiyatdagi barcha a'zolarining samarali mehnatisiz iqtisodiyotni tiklash murakkab bo'lib qolaveradi. Soliqlar bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirishni (motivatsiya qilinishini) olib qo'yadi, xolbuki mehnat daromad keltirishi lozim. Mamlakat iqtisodiyotiga soliq siyosatining ta'siri bevosita namoyon bo'ladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo'nalishlaridan) yana biri pul siyosatidir. Agar muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga (pulning aylanish tezligini hisobga olgan holda) mos kelmasa, pul massasining yetmagan qismi qog'oz pullar (pullarning surrogati) hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan toldiriladi. Va aksincha, agar pul massasi unga bo'lgan

talabdan ortiq bo'lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqishi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo'ladi. Tabiiy ravishda, bu holatlarning barchasi mamlakat qonunchiligiga ham bevosita bog'liq mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bolishiga ruxsat beriladimi yoki yo'qmi, milliy valyuta konvertatsiya qilinadimi yoki yo'qmi? va h.k.

Tovarlarning massasi cheklanganda pul emissiyasi boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligi qadrsizlanishiga olib keladi.

Emissiya siyosati va milliy valyuta barqarorligi pul siyosatining tarkibiy qismlaridir (yo'nalishlaridir). Emissiya siyosati muomala uchun zarur bo'lan pulning miqdorini aniqlashdan tashqari yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarini ko'paytirishdir. Ana shu yo'nalish alohida ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki ma'lum bir miqdoriy chegaradan o'tilganidan so'ng pul tizimi inflyasiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qoladi, ya'ni byudjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin. Agar qandaydir bir sabablarga ko'ra davlat o'z pul tizimini tartibga solishga qodir bo'lmasa, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetadi. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura olmaydi va milliy boylikdan mahrum bo'lib qolish mumkin.

Kredit siyosati ham moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) bo'lib, uning namoyon bo'lishi mamlakatning krediti tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit tizimi ssuda kapitalining faoliyatko'rsatishini ta'minlaydi. o'z navbatida, ssuda kapitali takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishdgi muhim shart hisoblanib, aylanma mablag'larni to'ldirish va investitsiyalar uchun mablag'larning qarzga olinishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotning kredit sektori o'rtacha foyda normasini tenglashtirish uchun ham xizmat qiladi. Foiz stavkasi darajasi jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U asossiz darajada yuqori bo'lsa, quyidagi salbiy oqibatlariga olib keladi:

- kreditlarning qaytarilmasligi;
- ishlab chiqarish sohasi va xizmatlar sohasida mahsulotlar narxining oʻsishi;
- qarzga oluvchilar rentabellik darajasining pasayishi va buning oqibatda soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi;
- ishlab chiqarishning qisqarishi;
- takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlari pasayishi natijasida ichki isteʼmol bozorining torayishi.

Kreditning arzonlashuvi ishlab chiqarishning sogʻlomlashuviga, tovarlar massasi ortishiga, tovarlar va xizmatlar bahosi pasayishiga va ana shularning natijasida esa, takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasi kengayishiga va byudjet daromadlari koʻpayishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yoʻnalishi) sifatida davlatning baho siyosati monopol tovar va xizmatlar bahosi va tarifining oʻzgartirilishi orqali ifodalanadi. Yer osti boyliklari, suv havzalari, temir yoʻllar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari davlatning monopol egaligidadir. Bu tarmoqlar tovarlari va xizmatlari bahosi oʻsishi (ortishi) milliy xoʻjalikning barcha boshqa sektorlarida baholar oʻsishiga olib keladi. Bu yerda bogʻlanish shunchalik ayonki, hech qanday izohga hojat yoʻq. Shuning uchun ham baho siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning muhim omili boʻlib hisoblanadi.

Investitsiya siyosati ham moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yoʻnalishlaridan) biri boʻlib, u eng awalo, mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga oʻz va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlar yaratish boʻyicha tadbirlar kompleksidan iborat. Bu siyosat davlat boshqaruvi va xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishga bogʻliq turli darajalarda amalga oshiriladi. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish, mamlakatdan kapitalning «chiqib» ketmasligi va aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallaroqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi.

Ijtimoiy moliyaviy siyosat Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat aholisining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq. Hozirgi paytda bu siyosat, o'z navbatida, nafaqa siyosati, immigratsiya siyosati, aholining ayrim ijtimoiy guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati singari sohalarni o'z ichiga oladi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida qarash bilan birgalikda uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida e'tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va boj yig'implari tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usuliga ham ega bo'ladi. Usulning o'ziga xosligi shundaki, bu siyosat bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan esa, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin. Masalan, mamlakatda mavjud bo'lmagan texnologik asbob-uskunani import qilishga 20% li boj yig'imi o'rnatilsa, bu narsa mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini kamaytiradi, ichki ishlab chiqarish o'sish sur'atlarini pasaytiradi, import mahsulotlari salmog'ini oshiradi.

Har qanday mamlakatning boj siyosati bumerang harakatiga egadir. Chunki boj undirishning cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi hajmlarining joriy qilinishi xuddi shunday javob choraiari qo'llanilishini taqozo etadi. Boj siyosati yo'nalishi tanlanishi mamlakat iqtisodiy ahvoriga mos kelishi kerak. Agar biz bugun oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj tovarlarining import qilinishiga bog'lanib qolsak, bu boj stavkalarida o'z aksini topmog'i lozim. Ammo boj stavkalari rag'batlantiruvchi bo'lsa, u holda mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilar xorijiy tovarlar bilan raqobat qila olmay qoladi.

Umuman olganda, aksari hollarda mamlakatning boj siyosati bojxona bojlari va to'lovlarini oshirishga yo'naltirilgan byudjet siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Xullas, moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismlari (yoʻnalishlari) iimiy jihatdan asoslangan, maʼlum bir maqsadlarga erishishga yoʻnaltirilgan, muvofiqlashtirilgan, takror ishlab chiqarish subyektlarining manfaatlariga zid kelmaydigan boʻlishi kerak. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat ichki va tashqi qarzlari kamayishiga, davlatning oltin-valyuta zaxiralari ortishiga, inflyasiyani jilovlashga, byudjet defitsitining kamayishiga, YalM koʻpayishiga, mamlakat tovarlarining raqobatbardoshligi kuchayishiga olib kelmogʻi lozim.

Moliyaviy siyosat real moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi zarur. Xarajatlar moliya resurslarining koʻpaygandagina oʻsishi mumkin. Bu, eng awalo, ishlab chiqarishni moliyalashtirishni bildiradi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hamma tadbirlari, bir tomondan, aholiga oʻz daromadlarini oshirish imkoniyatini berish, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak.

Moliyaviy siyosatning tubdan oʻzgarishiga mos ravishda moliya mexanizmi ham qayta qurilmogʻi lozim. Moliya mexanizmini qayta qurishdan asosiy maqsad bozor munosabatlari zahirida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga uning taʼsirini kuchaytirish, moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni taʼminlashdir. Moliya mexanizmini qayta qurish negizida korxonalar, tashkilotlar ishining yakuniy natijalarini yaxshilash uchun xoʻjalik tashabbuskorligi va masʼuliyatini butun choralar bilan kuchaytirish talab qilinadi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq faro-vonligining garovi. -Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017.
2. Olimjonov O.O., Malikov T.S. Moliya asoslari. Darslik /Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Sharq”, 2019.

3. Хожанова Г. О. Особенности использования природных ресурсов //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 2. – С. 105-107.
4. Khojanova G. O. Economic Aspects of Natural Resources Use in Uzbekistan //Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777). – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 22-27.
5. Khojanova G. O. INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF THE REGION'S NATURAL RESOURCES //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 28. – С. 171-176.
6. Otamurodovna X. G. TABIIY RESURSLARINING SANOAT TARMOQLARIDAGI O'RNINI //International Congress on Models and methods in modern investigations. – 2022.
7. Ochilova N. USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF FARMING AND HOUSEHOLDS //International Conference on Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 73-76.
8. Ochilova N. A. et al. Improving the Use of Agricultural Land in Kashkadarya Region //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2022. – Т. 4. – №. 3. – С. 49-54.
9. Khamraeva S. N., Samiyeva G. T., Ochilova N. A. Prospects of Innovative Development of The Agricultural Sector //NATURALISTA CAMPANO. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – С. 1610-1619.
10. Dustova M. COINS TO CRYPTOS: TRACING THE THREADS OF ECONOMIC TRANSFORMATION //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 5. – С. 78-82.
11. Dustova M. X., Shomurotova S. O. TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH //Conferencea. – 2022. – С. 119-121.

12. Khudayberdievna D. M. Improving the Mechanism of Financial Lending to Agricultural Enterprises. – 2023.
13. Xo‘jaqulova N. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati. – 2023.
14. Rustamovna K. N. State Support Areas for the Cultivation of Medicinal Plants in Agriculture. – 2023.